

ADABIYOT DARSLARIDA VIRTUAL TA'LIMYIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sevara Shakirova

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Orcid: 0009-0001-2094-1225

sevara.inboxx@gmail.com

***Annotatsiya.** Ta'limda virtual ta'limiy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, adabiy asarlarni chuqurroq anglash va tajribalarni boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada adabiyot darslarida virtual ta'limiy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi va imkoniyatlarini tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, xorij tajribalarini qo'llash va dars mazmuniga moslashtirish zarurligi ta'kidlangan. Tadqiqot xulosalari virtual ta'lim texnologiyalarini adabiyot darslarida qo'llashning yangi pedagogik imkoniyatlarini ochib beradi va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** Virtual texnologiyalar, virtual ta'lim, individual ta'lim, virtual reallik, VR texnologiyasi, AR texnologiyasi.*

Kirish

Jahonda xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha: yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim tizimini mustahkamlash, bilimlarni tarqatish, turli axborotlardan foydalanish, sifatli va samarali ta'limni tashkil etish uchun yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish zarur", deb e'tirof etilgan [1].

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv-tarbiya jarayonlarini axborotlashtirish, raqamli texnologiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish, aralash ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish malakasi va raqamli savodxonligini iyojlantirish, virtual ta'lim shakllarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash" [2] yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishning ustuvor vazifasi etib belgilangan.

Bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy texnika taraqqiyoti

mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Aynan shu maqsadda axborot va multimedia texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarining umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Virtual reallik — bu sun'iy hosil qilinadigan axborot muhiti bo'lib, u atrof muhitning odatiy usuldagi tasavvurini turli texnik vositalar asosida hosil qilinadigan axborotlar bilan almashtirishga qaratiladi. Ta'limiy maqsadlarda virtual reallik vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan axborotlarni vizuallashtirish vositalarini yaratish boshqa texnik vositalar yordamida erishib bo'lmaydigan pedagogik samarani berishi mumkin. Virtual (lotincha “virtualis” – mumkin bo'lgan, ya'ni muayyan bir sharoitda sodir bo'ladigan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan) tushunchasi narsa va hodisalarning vaqt va makonda mavjud bo'lmagan, lekin obyektiv va subyektiv obrazlarning amalga oshirish ehtimoli mavjud jarayonni anglatadi [3]. Virtual ta'limning asosiy maqsadi - insonning real dunyoda o'z taqdirini, shu jumladan virtual tarkibiy qismini aniqlash va unga erishishdir [4]. Avvalo, ushbu konsepsiyani ikki tomonlama talqin qilinishini ta'kidlash kerak. Virtual ta'lim deganda nafaqat masofaviy telekommunikatsiya ta'limi, balki ta'lim subyektlari va obyektlarining o'zaro ta'siri jarayoni va natijasi, ularni yaratish bilan birga, o'ziga xosligi ushbu obyektlar va subyektlar tomonidan aniq belgilanadi. [4]. Virtual ta'lim nafaqat masofaviy (online) ta'lim olishni balki o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan ta'lim maqsadlarida tashkil etilgan va foydalaniladigan mahalliy, korporativ va global kompyuter tarmoqlarining axborot mazmuni va kommunikativ imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Virtual o'qitish muhitlari — bu onlayn muhit bo'lib, unda o'quvchilar bir-biri va kontent bilan sinxron yoki asinxron tarzda o'zaro aloqada bo'lishi mumkin, bu esa ta'lim tajribalarini yetkazib berishda moslashuvchanlikni ta'minlaydi [5]. Ally o'zining ilmiy tadqiqotlarida virtual o'qitish — bu internet orqali turli texnologiyalar yordamida o'quv tajribalarini interfaol va immersiv tarzda yaratish orqali ta'limni amalga oshirish shaklidir deb ta'kidlaydi [6]. Savenye and Robinson esa virtual ta'lim — bu raqamli texnologiyalarni o'qitishni yetkazish va o'quvchilar bilan o'qituvchilarni elektron vositalar orqali bog'lash uchun ishlatishdir deb fikrlaydi [7]. Neuteboom virtual ta'limning imkoniyatlarini va cheklovlarini muhokama qilib, texnologiyalarni o'qituvchilar va talabalarning o'zaro muloqoti, o'rganish jarayonlari hamda ta'lim samaradorligini oshirishda qanchalik muhim rol o'ynashini tahlil qiladi [8]. James Calvert va Margee Hume o'z ilmiy tadqiqotlarida virtual haqiqat (VR) texnologiyalarining ta'limdagi ahamiyati va ularning o'quvchilarga ta'sirini keng muhokama qilingan [9].

Professor Yvon Xoning “Onlayn adabiyot darsida You Tube ijtimoiy tarmog'idan foydalanishning o'nta qiziqarli yo'li” metodidan Amerika maktab va universitetlaridagi adabiyot

daralarida keng foydalanadi. Bulardan, 1. Shoirning o'zi o'qigan she'rlari; 2. Shekspir pyesalarining jonli ijrosi. YouTubeda Otello, Gamletning spektakllari; 3. Mashhur asarlarning adabiy tahlili; 4. Muallif intervyulari va tarjimai holi; 5. Talabalarning adabiy asarlardan chiqishlari ya'ni asarni sahnalashtirishi; 6. Ona tilida ijro etilgan adabiy asarlar; 7. Ko'pgina tarixiy adabiy davrlarning musiqiy tanlovlari; 8. Amerikaning buyuk radio spektakllari; 9. Sevimli adabiy asarlardan 10 daqiqalik metrajli filmlar; 10. Audio kitoblar[10].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida adabiyot daralarida virtual ta'limiy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi pedagogik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Turli ta'lim sohasi vakillari tomonidan virtual texnologiyalar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, adabiyot daralarida virtual ta'limiy texnologiyalardan foydalanishga doir maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Bu esa virtual ta'limiy texnologiyalardan foydalanishga oid ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etdi.

Tadqiqotning maqsadi virtual texnologiyalarga doir ma'lum yondashuvlarni umumlashtirish va adabiyot daralarida virtual ta'limiy texnologiyalardan foydalanishga ta'sir qiluvchi asosiy ko'nikmalar ro'yxatini tuzishdir.

Virtual atamasi inson faoliyatining juda ko'p sohalarida uchraganligi bois uni ta'lim tizimiga olib kirishga yetarlicha asoslar mavjud. Jumladan, hozirgi kunda adabiyot daralarida ham virtual ta'limiy texnologiyalardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Jahon adabiyot daralarida virtual ta'limiy texnologiyalardan juda keng foydalanilmoqda. Misol sifatida **AQShda** Shekspirning asarlarini tahlil qilish uchun Virtual Reality (VR) tajribalari, **Buyuk Britaniyada** "Beowulf" dostonini raqamli hikoya qilish yordamida o'rganish va **Janubiy Koreyada** adabiyot daralarida Augmented Reality (AR) texnologiyalari yordamida realistik darslarni tashkil qilish kabi muvaffaqiyatli loyihalarni keltirishimiz mumkin.

Adabiyot daralarida virtual ta'limiy texnologiyalarini qo'llash o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi, motivatsiya va samaradorlikni oshiradi. Masalan, xorij maktablarining adabiyot daralarida ijodiy loyihalarni bajarishda o'quvchilarga she'r asosida videorolik **Buktreylar** yaratish topshiriladi. Videoloyiha tayyorlash jarayonida o'quvchilarning musiqa va tasviriy san'at haqidagi bilimlari kengayadi, badiiy so'z jonlanadi va chuqurroq idrok qilinadi. **Buktreylar** - bu kitobga asoslangan qisqa video. Uning asosiy vazifasi kitob haqida so'zlab berish, o'quvchini qiziqtirishdan iborat. Turli mavzularda videolarni yaratish jarayonida bolalar tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanishlari, videoni mazmun bilan to'ldirish uchun material

qidirishlari bilan birgalikda kitobni o'qib qiziq joylaridan lavhalar tayyorlashadi.

Interfaol adabiyot darslari o'quvchilarda asosiy kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bunday darsda o'qituvchining roli ham sezilarli darajada o'zgaradi. O'qituvchi interfaol texnologiyalarda bir nechta asosiy rollarni bajaradi. Ularning har birida ishtirokchilarning axborot muhitining u yoki bu sohasi bilan o'zaro aloqalarini tashkil qiladi. Mutaxassis ma'lumot beruvchi rolida o'qituvchi matnli materialni taqdim etadi, videolarni namoyish etadi, ishtirokchilarning savollariga javob beradi, jarayon natijalarini nazorat qiladi va hokazo. Tashkilotchi-vositachi rolida u talabalarning ijtimoiy va jismoniy muhit bilan o'zaro munosabatini o'rnatadi (ularni kichik guruhlarga ajratadi, ularni mustaqil ravishda ma'lumotlarni to'plashga undaydi, topshiriqlarni bajarishni muvofiqlashtiradi, mini-taqdimotlar tayyorlash kabi). O'qituvchi ishtirokchilarning kasbiy tajribasiga tayanadi, ularga mavjud muammolarning yechimini topishga yordam beradi, mustaqil ravishda yangilarini o'rnatadi.

Interfaol texnologiyalar bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish uchun, yangi materialni o'rganishda, bilimlarni nazorat qilish darslarida, shuningdek, sinfdan tashqari o'qishda qo'llaniladi. Mulohaza yuritish paytida, baho berishda interfaol ta'lim usullaridan foydalanish mumkin. Shunday qilib, interfaol ta'lim o'quv jarayonining bir shakli sifatida talabalarning kasbiy muvaffaqiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Zero, bu usullarning barchasi o'quvchining individualligi va mustaqilligini rivojlantirishni ta'minlaydi. Adabiyot darslarida interfaol texnologiyalardan foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, o'qish va til madaniyatini oshirishga, o'quv material va shaxsiy o'quv faoliyatini mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga, boshqalarning fikriga hurmatni shakllantirishga yordam beradi. Virtual ta'limiy texnologiyalar adabiyot darslarini interaktiv va samarali qilish imkonini beradi, biroq bu jarayonda ba'zi cheklovlar ham mavjud. Quyida ushbu texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi.

Virtual texnologiyalar ta'lim jarayonini qulay, moslashuvchan va samarali qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ta'limda virtual texnologiyalar global kirish imkoniyati, interfaollik, o'zlashtirishning yaxshilanishi, ko'pkanallilikka asoslangan ta'lim usullari va real vaqt rejimida ma'lumotni kuzatish va baholash kabi imkoniyatlarni beradi. Shuningdek, ta'limda virtual texnologiyalar turli intellektual usullarni birlashtiradi. Jumladan, hamkorlik va muloqot hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, uning kamchiliklari ham aniq bo'lib, talabalar va o'qituvchilarning doimiy yuqori tezlikdagi internetga ega bo'lish zarurligi, shaxsiy aloqaning yetishmasligi, diqqatni jamlashda qiyinchiliklarning yuzaga kelishi, motivatsiyaning pasayishi, kontentga bo'lgan chegaralar hamda haddan tashqari ekran vaqti (Screen Time) kabi cheklanishlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Virtual texnologiyalar adabiyot darslarini qiziqarli va jonli qiladi. Masalan, badiiy asarlarning sahnalarini virtual reallikda namoyish qilish o'quvchilarni jarayonga faolroq jalb etadi. Tarixiy voqealar, badiiy obrazlar va mualliflar hayotini vizual materiallar yordamida tasvirlash orqali tushunishni osonlashtiradi. Virtual simulyatsiyalar va interfaol platformalar yordamida o'quvchilar badiiy asarlarni tahlil qilish ko'nikmasini mustahkamlaydi. Virtual hikoya yaratish (digital storytelling) metodlari o'quvchilarning ijodkorligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida virtual ta'limiy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim qismi bo'lib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va mavzuni chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Virtual texnologiyalar yordamida adabiy asarlarni interaktiv tarzda o'rganish, tarixiy va madaniy kontekstni vizual shaklda namoyish etish, shuningdek, murakkab mavzularni tushuntirish osonlashadi. Adabiyot darslarida virtual texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun o'qituvchilarning texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tayyorgarligi hamda malakasini oshirish, texnologik infratuzilmani yaxshilash, jumladan virtual texnologiyalarni dars mazmuniga to'g'ri integratsiya qilish va ularni adabiy tahlil uchun vosita sifatida ishlatish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all.-p.47-48.
<https://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son "2022-2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022
3. M.Fayziyeva, D.Sayfurov. Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun "Virtual ta'lim texnologiyasi" moduli bo'yicha o'quv - uslubiy majmua. -Toshkent:Nizomiy nomidagi TDPU,2016.44-bet
4. Hamidov J.A., Murodova A.Y. (2023) Technology for development of professional and technical component of future engineers through virtual educational. Atamuratov R.K. The educational advantages of virtual reality technologies. The Computing Science and Technology International Journal, 4 May 2023, 87-90 pp
5. Hamidov J.A., Ximmataliyev D.O., Qodirov I.D., Ravshanov J.F., Xikmatullayeva D. "Jahon ta'lim tizimi" fanidan elektron darslik. Davlat patent idorasi guvohnomasi. – T., 2022 №DGU 18218.
6. Garrison, Anderson, and Archer. (2001) "Blended Learning: Uncovering its Transformative Potential in Higher Education"
7. Ally. (2008) "Foundations of Educational Theory for Online Learning"
8. Savenye and Robinson. (1995) "Distance Education: The Foundations of Effective Teaching and Learning in the 21st Century"
9. Robert Kimball, Neuteboom.(2014). Lessons from the Virtual Classroom: The Realities of Online Teaching, 2nd Edition . Journal of Teaching and Learning with Technology, pp. 105 - 106. <https://doi.org/10.14434.jotlt.v3n1.4279>
10. Calvert, J., & Hume, M. (2022). Immersing learners in stories: A systematic literature review of educational narratives in virtual reality. Australasian Journal of Educational Technology, 55–71. <https://doi.org/10.14742/ajet.7032>

11. Turku, M. (2024). Teaching and learning English literature through multimedia. *Academic Journal of Interdisciplinary Studies*, 13(3), 279. <https://doi.org/10.36941/ajis-2024-0080>